

HUDUDIIY IQTISODIYOTDA IXTISOSLASHTIRILGAN SAVDO MAJMUALARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING XIZMAT KO'RSATISH INFRATUZILMASIGA TA'SIRI**Xatamov Abror Abdigapparovich****“Bek baraka ixtisoslashgan savdo kompleksi” MCHJ
direktor o‘rinbosari**

Annotatsiya: Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining hududiy iqtisodiyotdagi roli, ularning rivojlanish tendensiyalari va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasiga bo‘lgan ta‘siri ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shuningdek, sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bozor, hududiy, iqtisodiy, savdo, infratuzilma, mahsulot, xizmat, majmua, foyda, tarmoq.

В статье анализируется роль специализированных торговых центров в экономике региона, тенденции их развития и влияние на инфраструктуру услуг с научной, теоретической и практической точки зрения. Также разрабатываются рекомендации по выявлению существующих проблем в отрасли и путям их решения.

Ключевые слова: рынок, региональный, экономика, торговля, инфраструктура, продукт, услуга, торговый центр, прибыль, отрасль.

This article analyzes the role of specialized shopping malls in the regional economy, their development trends and impact on the service infrastructure from a scientific, theoretical and practical perspective. It also develops recommendations on the existing problems in the industry and ways to overcome them.

Keywords: market, regional, economic, shopping, infrastructure, product, service, mall, profit, industry.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda tarmoqlararo aloqalarning samarali tashkil etilishi, xizmat ko‘rsatish sohasining zamonaviy shakllarda kengayib borishi, shuningdek, aholining iste‘mol madaniyati va talabiga mos ravishda savdo infratuzilmasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining barpo etilishi va ularning faoliyati nafaqat iste‘molchilar ehtiyojlarini samarali qondirishga, balki hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta‘minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga ham xizmat qilmoqda.

Ixtisoslashtirilgan savdo majmualari – bu muayyan turdagi mahsulot yoki xizmatlarni taklif qiluvchi, aniq bir yo‘nalishga ixtisoslashgan yirik savdo maydonchalari bo‘lib, ular zamonaviy logistika, xizmat ko‘rsatish texnologiyalari, marketing yondashuvlari va axborot texnologiyalariga asoslangan faoliyat yuritadi. Bunday majmualarning shakllanishi va rivojlanishi hududiy infratuzilmaning modernizatsiyasi, logistika tizimi samaradorligini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifati va ko‘lamini kengaytirish kabi muhim omillar bilan uzviy bog‘liq. Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar doirasida ichki bozorni rivojlantirish, iste‘molchilar talabini chuqur o‘rganish va innovatsion yondashuv asosida savdo tizimini zamonaviylashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yirik shaharlarda va yirik iqtisodiy faol hududlarda ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining tashkil etilishi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Ular orqali aholiga xizmat ko‘rsatish sifati oshadi, tadbirkorlik subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi, va eng muhimi, hududiy iqtisodiy makonda raqobatbardosh muhit shakllanadi. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualari zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish sektorining strategik tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Bu majmualar nafaqat savdo-sotiq faoliyatini olib borish maydoni, balki ko‘plab iqtisodiy jarayonlarning markazlashgan holda boshqarilishini ta‘minlovchi infratuzilmaviy kompleks sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududiy iqtisodiyot nuqtai nazaridan

ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining shakllanishi, ularning joylashuvi, xizmatlar ko'lamini va diversifikatsiyasi hududdagi iqtisodiy faollik, aholi bandligi va logistika tizimining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nazariy jihatdan, ixtisoslashuv – bu iqtisodiy subyektlarning yoki hududlarning ma'lum bir faoliyat turiga yo'naltirilgan holda rivojlanishi jarayonidir. Ushbu tamoyil savdo sohasida ham o'z aksini topadi. Ya'ni, an'anaviy bozorlardan farqli ravishda, ixtisoslashtirilgan savdo majmualari faqat ma'lum mahsulot yoki xizmat turiga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv, o'z navbatida, mahsulot sifati, xizmat ko'rsatish darajasi va mijozlar ehtiyojini to'liqroq qondirish imkonini yaratadi. Iqtisodiy nazariyalarga ko'ra, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi tarmoqlari (transport, logistika, axborot texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, saqlash va servis tizimlari) bilan uzviy bog'langan holda faoliyat yurituvchi savdo majmualari hududiy iqtisodiy o'sishning katalizatoriga aylanadi.¹ Shuningdek, iqtisodchi M. Porterning raqobat ustunligi nazariyasida ta'kidlanganidek, muayyan ixtisoslashuvlar asosida shakllangan klasterlar samarali hamkorlik, xarajatlarni kamaytirish va innovatsiyalarni tezroq joriy etishga xizmat qiladi. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualari esa, aynan shunday klasterlashuvning real ko'rinishidir. Ushbu savdo majmualari quyidagi asosiy iqtisodiy va tashkiliy afzalliklarga ega:²

- Mahsulotlar va xizmatlarning konsentratsiyasi – xaridorlar uchun bir joyda ko'plab tanlov imkoniyatini yaratadi;
- Xizmat ko'rsatish infratuzilmasi bilan integratsiya – avtoturargohlar, bank xizmatlari, yuk tashish va yetkazib berish tizimlari, texnik xizmat ko'rsatish punktlari mavjud bo'ladi;
- Tadbirkorlik uchun qulay muhit – kichik va o'rta biznes vakillari uchun ijaraga beriladigan do'konlar va xizmatlar tarmog'i mavjud;
- Hududiy raqobat muhitining shakllanishi – iqtisodiy faollikni oshiradi va innovatsion yondashuvlarni rag'batlantiradi.

Shuningdek, zamonaviy savdo majmualari xizmatlar ko'rsatish sifati va hajmini oshirish orqali aholi turmush tarziga ham ta'sir o'tkazadi. Masalan, keng tovar tanlovi, ma'lumotlarning raqamlashtirilgan tizimi, tezkor to'lov xizmatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish markazlari aholining ehtiyojlarini yuqori darajada qondirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, hududiy iqtisodiy barqarorlik va yashash darajasining oshishiga olib keladi.

Shu asosda aytish mumkinki, ixtisoslashtirilgan savdo majmualari nafaqat tijorat jihatidan, balki ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash vositasi sifatida ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Ular zamonaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmasining ajralmas qismi sifatida, har bir hududning iqtisodiy salohiyatini to'liqroq ro'yobga chiqarish imkonini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdo faoliyatini modernizatsiya qilish, uni hududiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining barpo etilishi va ularning infratuzilma bilan integratsiyasi orqali iqtisodiy faollik sezilarli darajada oshdi. Bu holat, ayniqsa, poytaxt va yirik sanoat shaharlari misolida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

1-jadval

2021–2023 yillarda xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi³

Yil	Xizmatlar ulushi (%)	O'sish (yillik)
2021	33,5 %	—
2022	35,8 %	+2,3 %

¹ Shodiyev, M. va Karimov, O. (2022). "Xizmatlar sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'ri: muammolar va istiqbollari" // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2022-yil, №5.b: 24–30.

² Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press. ISBN: 9780684841472. pp. 153–157

³ <https://www.stat.uz/uz/>

2023	37,3 %	+1,5 %
------	--------	--------

Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekistonda xizmatlar sohasi umumiy yalpi ichki mahsulot (YIM) tarkibida tobora muhim oʻrin egallab bormoqda. 2023-yil yakunlariga koʻra, xizmatlar sohasi YIMning 37,3 foizini tashkil etgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2021-yilda 33,5 foiz, 2022-yilda esa 35,8 foiz edi. Bu raqamlar shuni koʻrsatadiki, mazkur soha soʻnggi uch yil davomida barqaror oʻsish tendensiyasini namoyon qilgan. Bunday yuksalishning asosiy omillari sifatida xizmatlar tarmogʻining ichki tuzilmasida kechayotgan tarkibiy oʻzgarishlar, raqamli texnologiyalarni joriy etish, savdo va logistika infratuzilmasining izchil rivojlanishi, shuningdek, isteʼmol bozorida talabning ortib borishi keltiriladi.

Xususan, ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining koʻpayishi, ularning zamonaviy xizmatlar ekotizimi bilan uygʻunlashuvi bu sohadagi oʻsishning muhim drayverlaridan biri hisoblanadi. Masalan, yangi tashkil etilayotgan yirik savdo markazlari nafaqat tovar aylanishini tezlashtirmoqda, balki transport-logistika xizmatlari, elektron toʻlov tizimlari, mijozlarga xizmat koʻrsatish standartlari va servis xizmatlarini ham joriy etmoqda. Bu esa xizmatlar sektorining ichki samaradorligini oshirib, uning iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

2-jadval

Toshkent shahrida savdo xizmatlari hajmi (2021–2023)⁴

Yil	Savdo hajmi (trln soʻm)	Oʻsish surʼati (%)
2021	25,1	—
2022	29,9	+19,1 %
2023	34,8	+16,5 %

Toshkent shahrida 2023-yil davomida koʻrsatilgan savdo xizmatlari hajmi 34,8 trln soʻmni tashkil etgan. Bu koʻrsatkich 2022-yilga nisbatan 16,5 foizga koʻpdir. Ushbu oʻsishda ixtisoslashtirilgan savdo majmualari salmoqli ulushga ega. Mazkur koʻrsatkichlar shuni anglatadiki, ixtisoslashtirilgan savdo majmualari nafaqat savdo jarayonlarini soddalashtirgan, balki butun bir xizmatlar ekotizimini shakllantirib, aholi uchun zamonaviy va qulay xizmatlarni taqdim eta boshlagan. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualari bandlik darajasiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda. Jumladan, 2023-yil holatiga koʻra, yirik savdo majmualarida toʻgʻridan-toʻgʻri va bilvosita band boʻlgan fuqarolar soni 210 ming nafarga yetgan. Bu 2021-yilga nisbatan 42 ming nafarga koʻpdir. Bundan tashqari, ushbu savdo markazlarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni ham ortmoqda. Masalan, faqat Toshkent shahri boʻyicha 2023-yilda 5 400 dan ortiq kichik biznes subyekti ushbu majmualarda faoliyat olib borgan. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualari quyidagi infratuzilma komponentlarini oʻz ichiga olgan:

- Transport va logistika xizmati (yuk mashinalari, saqlash omborlari, qadoqlash);
- Toʻlov tizimlari (bank ofislari, elektron toʻlov terminallari, onlayn toʻlov platformalari);
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (raqamli kataloglar, elektron CRM);
- Servis xizmatlari (kafolatli xizmat koʻrsatish, taʼmirlash ustaxonalari).⁵

Bunday infratuzilma mavjudligi xizmatlar sifati va tezligini oshiradi, mijozlar qoniqishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi va hududiy iqtisodiy raqobatni kuchaytiradi.

Hududiy iqtisodiyotda ixtisoslashtirilgan savdo majmualarining rivojlanishi nafaqat bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan zamonaviy savdo muhitini shakllantiradi, balki xizmat koʻrsatish infratuzilmasining tubdan takomillashuviga ham olib keladi. Maqolaning kirish qismida qayd etilganidek, bugungi kunda mahalliy iqtisodiyotda sektorlararo uzviylik kuchayib borayotgan bir paytda, aynan savdo va logistika yoʻnalishidagi kompleks infratuzilmalar

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi rasmiy maʼlumotlari asosida muallif tomonida tuzilgan

⁵ Xalilov, R. (2021). “Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda savdo majmualarining roli”// “Iqtisodiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy jurnali, №3.

mintaqaviy iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Ixtisoslashgan savdo majmualari – bu shunchaki savdo nuqtalari emas, balki ular sanoat, logistika, bank-moliya, transport va servis xizmatlari bilan uzviy integratsiyalashgan iqtisodiy markazlar bo'lib xizmat qiladi. Ular bozor infratuzilmasining to'laqonli ishtirokchisiga aylangan, shuningdek, mahalliy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga qulay muhit yaratishda muhim omil sanaladi.

Tahlil qismida keltirilgan Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda xizmatlar sohasining YIMdagi ulushi barqaror o'sib bormoqda: 2021-yilda 33,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 35,8 foiz, 2023-yilga kelib esa 37,3 foizga yetgan. Bu o'sish asosan savdo va transport-logistika infratuzilmasining faol kengayishi evaziga yuz bergani ushbu majmualarning iqtisodiyotdagi strategik rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, viloyat markazlarida tashkil etilayotgan zamonaviy savdo-logistika markazlari nafaqat bandlik darajasini oshirmoqda, balki xizmatlar eksporti va mahalliy lashtirish jarayonlariga ham sezilarli turtki bermoqda. Hududiy kesimda olib borilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, ixtisoslashtirilgan savdo majmualari xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishda "ko'paytiruvchi effekt"ni yuzaga keltirib, boshqa turdosh sohalarni ham harakatga keltiradi. Ayniqsa, avtomobil yo'llari, omborxona xo'jaligi, logistika, axborot texnologiyalari va bank xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bu fikrni tasdiqlaydi. Shu bilan birga, aholining iste'mol madaniyati va savdo xizmatlaridan foydalanish sifati ham ijobiy tomonga o'zgarib bormoqda. Shu asosda, mamlakatda ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini yanada rivojlantirish, ularni hududiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish, shuningdek, ular orqali kompleks xizmat ko'rsatish infratuzilmasini barpo etish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida bu yo'nalishda normativ-huquqiy baza, zamonaviy raqamli texnologiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodiyev, M. va Karimov, O. (2022). "Xizmatlar sohasining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini muammolar va istiqbollar" // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2022-yil, №5.b: 24–30.
2. Xalilov, R. (2021). "Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda savdo majmualarining roli" // "Iqtisodiy tadqiqotlar" ilmiy-amaliy jurnali, №3.
3. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press. ISBN: 9780684841472. pp. 153–157
4. Asian Development Bank (2022). "Strengthening Regional Trade Infrastructure in Central Asia", ADB Working Paper Series No. 631
5. <https://lex.uz/>
6. <https://www.stat.uz/uz/>
7. worldbank.org